

METHODS FOR DEVELOPING CRITICAL AND CREATIVE THINKING IN STUDENTS

Xusanova Karimaxon Faxriddin kizi

e-mail: husanova.karima@mail.ru[+998906803822](tel:+998906803822)

Abstract: This thesis discusses the development of students' critical and creative thinking skills and their importance in the education system. Indeed, a student who meets the demands of the 21st century should not merely memorize information, but be able to analyze ideas and, at the same time, generate new and original concepts as an independent thinker.

Keywords: critical and creative thinking, method, idea, student, school, fact, discussion, analysis.

**O'QUVCHILARDA TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI
METODLAR**

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida so'z boradi. Zero, XXI asr talablariga mos keluvchi o'quvchi bilimni faqatgina yod oluvchi emas, balki o'z fikrini tahlil qila oladigan va shu bilan birgalikda yangi g'oyalarni ilgari sura oladigan mustaqil shaxs bo'lmog'i zarur.

Kalit so'zlar: tanqidiy va ijodiy fikrlash, metod, g'oya, o'quvchi, maktab, fakt, fikr almashish, tahlil.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda interaktiv va kreativ metodlarning ahamiyati katta. Xususan, ularning maqsadi o'quvchini faol ishtirok etishga, o'z g'oyasini erkin ifodalashga va turli nuqtai nazardan tahlil qilishga rag'batlantirishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar faol ishtirok etgan, muammolarni mustaqil hal qilgan vaziyatlarda fikrlash qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Shu sababli pedagogic amaliyotda metodik vositalarni amaliyot bilan birlashtirish muhimdir. Interaktiv va kreativ metodlar orqali o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini jamlaydi, motivatsiyasini oshiradi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni oshirishga xizmat qiluvchi metodlar. Tanqidiy fikrlash — fakt va fikrni ajratish, dalil keltirish, mantiqiy xulosaga kelish jarayonidir. Bu qobiliyatni o'quvchilarda shakllantirish uchun bir qancha metodlar mavjud. Jumladan, darsni boshlash yoki mustahkamlash qismida Ochiq savollar (Open-ended Questions) metodidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzuga doir ochiq savollar berib, bu orqali ularning mavzuni qay darajada yaxshi o'zlashtirganini aniqlash mumkin. Shu bilan birgalikda, o'quvchilar savollarga javob berish orqali o'z fikrlarini izohlaydi va himoya qiladi. Masalan, adabiyot fanida o'quvchilarga “Nega qahramon bunday harakat qildi?”, “Agar siz ushbu qahramonning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?”, “Qahramonning bu qarorini to'g'ri deb hisblaysizmi?” kabi savollar berilsa, har bir o'quvchi o'z dunyoqarashidan kelib chiqib javob beradi va o'qituvchi bu orqali o'quvchilarni bir vaziyatga turli xil tomonlardan qarashni o'rgatadi. Keyingi metod Holat tahlili (Case study) deb nomlanadi. Bunda o'quvchilarga real yoki xayoliy vaziyatlar beriladi va o'quvchilar muammoning sabab-oqibatlarini

aniqlab, unga turli yechimlar berishadi. Bunda qabul qilingan har bir javob izohlanadi va mantiqiy jihatdan vaziyatga mos ekanligi asoslanadi. Bundan tashqari O'yinlashtirish (Gamifikatsiya) metodi ham borki, bu orqali dars o'yin shaklida tashkillashtiriladi. Xususan, adabiyot darsida "Qahramonlar sarguzashti" o'yinidan foydalanish o'quvchilarga yuqori kayfiyat beradi. Bunda o'quvchilar orasidan bir qancha adabiy qahramonlar uchun ishtirokchilar tanlab olinadi va ularga syujetga aloqasi bo'lgan va bo'lmagan turli vaziyatlar beriladi. Qatnashchilar qahramonlarning xarakterini bilgan holda muammolarga o'z yechimlarini va berilgan vaziyatda qanday yo'l tutishlarini aytib, izohlashadi. Qolgan o'quvchilar esa "qahramon"larning harakatlarini tanqidiy baholashadi va bu vaziyatda nega shunday qaror qabul qilishgani, boshqa yechimlar ham bo'lishi mumkin ekanligi haqida aytishadi. Natijada dars deyat tarzida o'tadi. Dars so'ngida esa barcha variantlar muhokama qilinib eng qiziq va mantiqiy deb topilgan qarorlar tanlanadi.

O'quvchilarda ijodiy fikrlashni oshirishga xizmat qiluvchi metodlar. Ijodiy fikrlash — yangi g'oyalar yaratish va mavjud muammoni innovatsion yondashuv orqali hal qilish qobiliyatidir. Bu ko'nikmani o'quvchilarda rivojlantirish ularning hayotiy kompetensiyasini oshiradi. Adabiyot darslarida o'quvchilarga to'qima bir nechta qahramon va vaziyatlar beriladi hamda o'quvchilardan har kim "O'zim yozgan hikoya" nomi ostida barcha vaziyat va qahramonlarni qatnashtirib ijodiy matn yozish so'raladi. Buni kichik guruhlar o'rtasida ham amalga oshirsa bo'ladi. Natijada barcha o'quvchilar vazifaga ijodiy yondashishadi va bu orqali o'quvchilarning fantaziyasi oshadi. Bundan tashqari, Raqamli vositalar integratsiyasi (Digital tools integration) orqali ham o'quvchilarni kreativ va ijodiy fikrlashga o'rgatish mumkin. Ya'ni bunda o'quvchilardan o'z hikoyalarini turli dasturlar, jumladan Canva, Padlet va shunga o'xshash dasturlar orqali fikrlarini vizual tarzda ifoda etish so'raladi. Bu orqali o'quvchilar ham hikoya yozishadi, ham uning vizual tasvirini yaratishadi. Kreativ yondashuv metodlari o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni uyg'unlashtirishning eng samarali yo'llaridandir. Zamonaviy metodik vositalar va interaktiv usullar yordamida o'qituvchi o'quvchini faol va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Bugungi o'quvchi — ertangi jamiyat yaratuvchisi. Shuning uchun biz ularda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali tafakkurini kengaytirishimiz zarur. Fikr yuritishni o'rgangan bola hayotda mustaqil, mas'uliyatli va o'z g'oyasiga ega inson bo'lib voyaga yetadi. Bunday o'quvchi nafaqat kitobdagi qahramonlarni, balki hayotiy voqealarni ham chuqur tahlil qila oladi. Ijodiy fikrlash esa unga yangi yo'llarni izlash, mavjud muammolarga noodatiy yechim toppish imkonini beradi. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarni fikrlashga undasa, bu ta'limdagi eng katta yutuq bo'ladi. Natijada, o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalovchi, tahliliy yondashuvga ega ijodkor shaxsga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bloom, B., *Taxonomy of Educational Objectives*, New York: Longman, 1956.
2. Jhonson, L., *Critical Thinking in the Classroom*, London: Routledge, 2019
3. Paul, R., Elder, L., *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning* Pearson, 2006.
4. Brookfield, S., *Teaching for Critical Thinking*, 2012